

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

X.Mamajonov	
Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtaсидаги дипломатик муносабатларнинг манбашунослигига доир айrim fikr-mulohazalar	113
ADABIYOTSHUNOSLIK	
X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova	
Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari	118
A.Abduraxmonov	
Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati	122
B.To'rayeva	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari	127
N.Karimova	
Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi	134
P.Ro'ziboyeva, B.Karimov	
Abdulhamid Cho'lon hikoyalarda ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi	138
N.Avazov	
"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi.....	143
Sh.Axmedova	
Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari.....	151
N.Soatova	
Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati	155
Sh.Turg'unov	
Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida	162
TILSHUNOSLIK	
Sh.Iskandarova, F.Musayeva	
Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir.....	168
D.Ganiyeva	
Turli tizimdagи tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunktionalligi.....	171
Sh.Amonturdiyeva	
Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari.....	176
N.Xoshimova	
Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi	184
M.Hojiyeva	
Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida	187
V.Giyosova	
Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar	190
S.Ahmadaliyeva	
Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida.....	193
H.Saipova	
Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari	197
MATEMATIKA	
T.Ergashev, D.Urinboyeva	
Ikkinchи tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida.....	201
B.Kadirkulov, M.Jalilov	
Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagи tenglama uchun qo'yilgan teskari masala	209
N.Murolimova	
Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lgin tenglamasi uchun chegaraviy masala	214
<u>FIZIKA - TEXNIKA</u>	
X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov	
Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish	223
M.Abdullahayeva, Sh.Shuxratov	
Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishnig pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	228

**ABDULHAMID CHO'LTON HIKOYALARIDA AYOLLAR OBRAZI TALQINI,
AYOLLAR ERKI VA TA'LIMI MASALASI**

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В РАССКАЗАХ АБДУЛХАМИДА
ЧОЛПОНА, ПРОБЛЕМА ЖЕНСКОЙ СВООДЫ И ОБРАЗОВАНИЯ**

**INTERPRETATION OF THE IMAGE OF WOMEN IN ABDULHAMID CHOLPON'S
STORIES, THE ISSUE OF WOMEN'S FREEDOM AND EDUCATION**

Parizoda Ro'ziboyeva¹, Karimov Bahodir Nurmetovich²

¹Parizoda Ro'ziboyeva

–Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi.

²Karimov Bahodir Nurmetovich

–Filologiya fanlari doktori, professor.

Annotatsiya

Jadid adabiyoti, xususan, Cho'lpon ijodi adabiyotimizning durdona asarlari sirasiga kirdi. Bu davrda yozilgan asarlar g'oyaviy pishiqligi, obrazlar mukammalligi, syujetlarning izchilligi bilan ham ahamiyatlidir. Bugunga qadar jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo'lgan Cho'lponning nasriy asarlari janr xususiyatlari, hikoyalari strukturası, nasriy asarlarida tagma'no qatlamlarini o'rganish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu kabi izlanishlar esa, cho'lponshunosligimizni yanada boyitadi. Ushbu maqolada esa, Cho'lpon hikoyalari dagi ayyollar obrazi tadqiq etiladi.

Аннотация

Джадидская литература, в частности творчество Чолпона, является одним из шедевров нашей литературы. Произведения, написанные в этот период, также важны своей идеальной силой, совершенством образов и логичностью сюжетов. К настоящему времени Чолпон, один из лидеров джадидского движения, провел исследование жанра прозы, структуры рассказов, изучение пластов прозы в прозе. И такого рода исследования обогащают нашу астрономию. В данной статье рассматривается образ женщины в рассказах Чолпона.

Abstract

Jadid literature, in particular, the work of Cholpon, is one of the masterpieces of our literature. The works written during this period are also important for their ideological strength, perfection of images and consistency of plots. To date, Cholpon, one of the leaders of the Jadid movement, has conducted research on the genre of prose, the structure of stories, and the study of the layers of prose in prose. And this kind of research will enrich our astronomy. This article examines the image of women in Cholpon's stories.

Kalit so'zlar: badiiy umumlashma, obyektivlik, kutilmaganlik effekti, izchillik, ziddiyatlar ketma-ketligi, syujet maydoni.

Ключевые слова: художественное обобщение, предметность, эффект неожиданности, последовательность, череда противоречий, сюжетная линия.

Key words: artistic generalization, objectivity, surprise effect, consistency, sequence of contradictions, plot area.

KIRISH (ВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Ayol muqaddas deymiz. Ayol buyuk xilqat deymiz. Mudom ayol shaxsini ulug'lashga, uning qadr-qimmatini joyiga qo'yishga intilamiz. Ayol oilaning, jamiyatning yaratuvchisi. Farzandlar tarbiyasida ham ilmi, dunyoqarashi keng bo'lgan onalarning o'rni beqiyos. Ammo har doim ham ayol shaxsiga bugun biz qarayotgan rakurslardan qaralmagani kishi ko'nglini xira qiladi. O'tgan asrning boshlariida jamiyatda ayollarga ko'rsatilgan munosabatni ko'rib, o'qib xo'rligi, rahmi keladi odamning. O'z erki, o'z huquqidan bexabar, o'z taqdirining poydevoriga o'zi bitta g'isht qo'shishga-da haqli bo'limgan, mudom oyoqosti bo'lgan ayollarimiz haqida o'qir ekanmiz o'sha davrdagi ayollarning iztiroblari, ko'ngil istaklari ko'nglimizga ko'chib o'tgandek bo'ladi. Jadidchilik harakati a'zolarining ham bosh g'oyalaridan biri ayollar erki, xotin-qizlar ta'limi bo'lganligi ham bejiz emas. Ayol jamiyatning muhim bir bo'g'ini, yaratuvchisi. Ushbu harakat yetakchilaridan biri bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon ham o'zining yozgan asarları orqali ayollar erku-ozodligi uchun kurashishga, ularning ko'ngil istaklarini kuylashga harakat qilgan. Adib o'zining "Kecha va kunduz" romanida Zebi, "Novvoy qiz" hikoyasida novvoy qiz, "Qor qo'ynida lola" hikoyasida Sharofatxon, Qumribush, "Oydin kechalar" da Xadichaxon obrazlari orqali ayol ruhiyati, kechinmalari , ayol xarakterini ochib berishga harakat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/LITERATURE REVIEW)

Cho'lpon iste'dodiga xos lirik nazokat va nafosat shoir nasriy asarlarining ham o'ziga xosligini belgilab keladi. Cho'lpon qaysi mavzuga murojaat etmasin, badiiy voqelikni poetik va obrazlar orqali mujassamlashtirishga erishdi. Shu ma'noda uning o'tgan asrning 20-yillarda yozgan "Oydin kechalarda", "Seni ko'p ko'rmasun" "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz" singari hikoyalari o'zbek

ADABIYOTSHUNOSLIK

adabiyotidagi lirik nasrning dastlabki mumtoz namunalaridir. Cho'pon bu hikoyalarida o'zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini turli badiiy rejada tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g'oyani bu asarlar orqali anglatishga intilgan. Umuman olganda, o'zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Cho'pon she'riy ijodining ham, kichik epik asarlarining ham, "Kecha va kunduz" romanining g'oyaviy yo'nalishini ham belgilab bergen.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Dastlabki e'tiborimizni "Qor qo'yunda lola" hikoyasiga qaratatsak:

Bu hikoya ayol va qizlarning nozik his-tuyg'ulari, taqdir oldida itoatkorligini sabr-toqatini ko'rishimiz mumkin. Hikoya Sharofatxon ismli qizning tengqur dugonalari bilan koptok o'ynayotgani bilan boshlanadi. Bir nechta qizlar koptok o'ynashadi va bir payt Sharofatxonning qo'lidan koptok tushib ketadi. Ortidan yugurib yetguncha koptok hovuzga tushadi. Toji qassobning kichik qizi Turg'unbush tomidagi tut o'tinidan bir butoqni olib tushgach hovuzdan koptokni olishadi. Ayni shu paytda Sharofatxonning bolalarcha "Hu, qochmay o'lgin, tutilding-ku" [1: Cho'pon asarlari. 1-jild. "Akademnashr" Toshkent-2016, 319-320-b], - deyishida uning bolalarcha beg'uborligi, o'yinقارولىقىنى ko'rishimiz mumkin. Hikoyani o'qishni boshlagan o'quvchi dastlab ohanglarga e'tibor qaratmaydi. Shuning uchun ham jabrdiyda – Sharofatxonni o'ksik siniq ovozda tasavvur qiladi. Ammo otasining nomi chiqqan savdogarligi, shu jihatdan ham hikoyamiz qahramoni erkilik, o'yinقارولىقىدا yakka ekanligi uning ovozida qat'iyat, hukmfarmolik (-Baribir qancha siqb quritmoqchi bo'lsak-da xo'l to'p chiqmaydir, boshqa kimning to'pi bor?) siltalash, dimog'dorlik, (-Voy, o'la qolay, hech qaysilaringda yo'qmi?) dugonalari uning oldida xijolat tortishi, o'zlarini aybdordek his etishi (-Meniki bor edi-yu, tunov kuni Gulnor o'lgor yo'qotib qo'yibdir) dan uning dugonalar davrasida bechora qiz emas, qat'iyatl qiz ekanligi anglashiladi. Hikoya gapdan-gapga syujet tadriji o'sib boradi. Qizlar koptokni quritishayotgan paytda Turg'unbushning singlisi Fazilatxon opasining dugonasi Sharofatxonning Sovchi kelganini shipshiydi. Bu bir zumda qizlarga ayon bo'ladi. Cho'pon aslida hikoyaning birinchi qismini qizlar koptokni suvg'a tushirib yuborgan paytda ham yakunlasa bo'lar edi. Lekin u bunday qilmadi Sovchi kelishi xabari orqali hikoyaning keyingi voqealariga ishora qiladi...

Sharofatxonning oilasiga keladigan bo'lsak, otasi Samandar aka ilgaridan ot chiqargan bir savdogar edi. Bir necha yil savdosi yurishib o'tgan bahorda kasodga uchragan. Bor-budini qarz to'lash uchun sotgach, juda so'fi bo'lib eshonnikiga qatnaydign bo'lgan. Kunini eshonnikida o'tkazadi. Onasi Qumribibi oddiy, sodda, eriga itoatli bir o'zbek ayoli. Sharofatxon esa bu oilaning yakka-yolg'iz farzandi. Hamma muammo eshonga nazr berish masalasidan boshlanadi. Kimdir qo'y, kimdir sarpo, kimdir oziq-ovqat olib keladi. Samandar akaning esa berishga hech narsasi yo'q. Ko'ngli xijil bo'lib uyiga kelaganida qiziga eshondan Sovchi kelganidan xabar topadi. Ayolidan bu xabarni eshitgach :

– To'g'rimi, eshonnikidanmi, to'g'rimi? Eshon nega o'zimga mazmun qilmadilar ekan? [2: Cho'pon asarlari. 1-jild. "Akademnashr" Toshkent-2016, 319-320-b] – deb ham hayratlanib, ham quvonib ketadi. Xotinining: - Endi katta odam, men sovchilarga hali qizim yosh, endi o'n yettiga chiqdi, dedim. Shunday deb javob bera qolaymi? – degan gapiga "Bitta qizimiz bo'lsa, hazrat eshonimizg'a tutdik, sadag'asi ketsun!", - deb javob beradi va shu bilan o'zining boshqa muridlar bera olmagan narsa berishdek niyatiga yetgandek edi. Qumribush bu kutilmagan javobdan oqarib, ko'karib, devorga suyanib qoladi. Samandar aka nazr berish chorasini topganidan, eshonga qiz berib qaynota bo'lishidan, obro'si yanada ortishidan sevinib shunday javob bergandi ehtimol. Ammo xotini nima qilsin? Sharofatxon uning ham bolasi. Uning ham orzu-havasi bor. Xali endigina o'n yettiga kirgan qizini ikki xotinlik, soqoli oqorgan eshongan beraman deb o'ylabmidi?! Na eriga so'z qota oladi, na qiziga yon bosa oladi. Erning qarori qat'iy. Shikoyatga o'rinn yo'q. Shuning uchun ham bir so'z aytishga-da botinolmaydi. Bir so'z aytishgada haqqi yo'q. Sharofatxon-chi? Undan ko'ngil so'rashdimi? O'zi uning gapirishga haqqi bormidi? Zamon nozik edi. Qiz tarbiyali edi. Otaga, onaga tik boqib so'z aytmasdi. Chinakam o'zbek qizi edi. Ehtimol, yostig'ini ho'l qilib tuni bilan yig'lagandir. Ehtimol orzular poymol bo'lgandir... Ehtimol ranglari so'lib, umr bahorida ko'zlariga, badaniga izg'irin nayzalari sanchilgandir, bu bizga noma'lum. Bilganimiz tez fursatda to'y bo'lib o'tdi. Eshon buva kuyov bo'ldi. Sharofatxon kelin bo'ldi. Qiy-chuv, nog'orayu-tog'ora, kuy-qo'shiq avjida bo'ldi. To'yxonada gulxan yoqildi. Madordan qolgan kayvoniy kuyov kelinni ko'tarib oldi"

"- Ko'taring-a, kuyov pochcha, ko'taring-a!

- O'zingizni tetik tuting, taqsir!

- Ha, taqsir, ko'taring!

- Barakalla, taqsir, barakalla!

- *Bo'sh kelmadilar taqsirim!*" [3:Cho'Ipou asarlari. 1-jild. "Akademnashr" Toshkent-2016. 324-325-b]

Yana qiy-chuv, qarsaklar bo'ldi. Yig'lagan ham, kulgan ham o'z-o'zi bilan bo'ldi. Chidagani uchun, sukul saqlagani uchun, ota so'ziga, taqdiriga va yozug'iga ko'ngani uchun kim olqishladi Sharofatxonni? Kim tinglay oldi sukutini? Kim ayta oladi uni paranji ostida kulyapti deb. Kim ko'rdi uning ko'zlarini? Hech kim! O'zi ahamiyati bormidi uni eshitishning? Siz erta bahorda bodomning gullashini intizorlik bilan kutsangiz-u, beboshamol gul yaproqlarini ayamay uchirib ketsa, yerlarga to'kib, loyga qorishtirsa rahmingiz kelmaydimi? Eshonning baxtidan quvonganlar qancha ko'p bo'lsa Sharofatxonning ayanchli taqdiriga achinganlar ham ko'p bo'ldi. Buni eshonning uyidan chiqqan ikki yigitlarning suhbatidan anglasak ham bo'ladi:

"- Ho'x-ho, ko'cha juda qorong'i-ku!

- *Shuni aytgil-a, osmonda dorig'a ham bitta yulduz topilmaydur!*

- *Yuraber. Bu kecha xuddi eshonbobongning ko'nglidagidek bo'libdir.*

- *To'g'ri-da, men qizga achinaman, boyaqish kelib-kelib kimniki bo'ldi-ya!...*

- *Nimasini aytasan, otasining uyi kuysin, odam emas ekan!*

- *Soqolinini oppoq tutadek qilib, nevarasidek bir qizni aravadan olishini qara, kishi chidamas ekan. Shuni bir narsaga o'xshatgum keldi-yu, o'xshata olmadim-da! shu payt urchakda poylab yotgan Mamat qorovul gapga qo'shiladi:*

- *Nimasini aytasiz, yigitlar, dunyo o'zi shunday teskari dunyo ekan... Lolaning ustiga qor yo'g'di...*" [4:Cho'Ipou asarlari. 1-jild. "Akademnashr" Toshkent-2016. 326-b]

Cho'Ipou ushbu hikoyada badiiy umumlashtirishdan mohirona foydalanadi. Sharofatxonning taqdiriga hammaning: ota-on, qo'ni-qo'shni, eshonning ham aybdor ekanligini yanada aniqlashtirib beradi. To'y daragini eshitib qizga achingan mahalladoshlarining baralla yor-yor aytgan ayyollarni-da qizning ayanchli qismatiga dahldor etadi.

"Seni ko'p ko'rmasun" hikoyasida ham biz o'zbek ayolining iztiroblari haqida so'z boradi. Hikoya qahramoni Xadichaxon ikki o'g'ilning onasi. Eri Roziqjon qishloqlik dehqon, to'rt-besh tanob yerda ishlab ro'zg'orini tebratadi. Ro'zg'ori onasi, xotini, ikki o'g'li va o'zidan iborat. Hammasi binoyidek ketyotgandi. O'tgan bahorda Roziqjon xuftongacha daladan qaytmadi. Xotini sodda emasmi, "bugun o'roqni bo'lsa, narigi jo'gari tomona suv bog'lamoqchi edi", - deb o'ylaydi. Zamon esa notinch. Tun yarmida eshi qoqiladi. Eshikni ochgani chiqqan kampir "Voy bolam" qaytib kiradi. Bolasini yo'lda beklar otib ketganini aytishadi. Ayol otadan keyin eriga suyanadi. Suangan tog'i qulagandan keyin holatini tasavvur qilavering. Bechora ayolning ko'nglidan o'tgani o'zi va Xudoga ayon. Xadichaxon erini sog'inib dalaga chiqadi. Odamlarni, qishloqdoshlarni ko'rib ovunmoqchi bo'ladi. Egatlardan, odamlar orasidan erini izlaydi. Qayta dog'lanadi. Qayta kuyadi.

Bir yillar o'tgach Xadichaxon yana bir tog'ini yo'qotadi. Qaynonasi qatiq sotib puliga go'sht olib kelishimi tayinlagan o'g'li Sobirjondan ham ayrılib qoladi. "Shaharda otishma bo'lgan ekan, o'q tekandur... yo armanlar otib ketgandur...", - deydi Sobirjonnini daragini izlab borgan Xolmat. Xadichaxon yigirma uch yoshida ikki marta dog'landi. Ona uchun farzand dog'idan ortig'i bo'lmaydi. Bilmagan kishilar uni "qari juvon" deb o'ylaydi. U boshiga tushgan ko'rguliklardan es-hushini yo'qotadi. Qo'shni bolalar "Xadi jinni" deb ot qo'yadi. Uni yaqindan bilganlar esa achina boshlaydi. Xadichaxon esa yolg'iz qolgan o'g'li bilan ovunadi. Uning kelajagi kamolidan umidvor bo'ladi. Yuqoridagi har ikki hikoyada qahramonlarimizning keyingi taqdiri noayon qoladi. Xuddi "Kecha va kunduz" romanidagi Zebining qamoqdagi va undan keyingi taqdiri mavhumligicha qolgani kabi. Bu kabi yakunlarni Cho'Ipou hikoyalarda ko'plab uchratish mumkin. Adib yuqoridagi ikki hikoya orqali zamon zayliga, o'z taqdiriga ko'ngan, chorasiz, kechishni-da, ortga qaytarishnida imkon bo'lmagan lahzalar qiyognog'ida kuymalanayotgan ayollarni bosh qahramon darajasiga ko'taradi. Ammo biz bu voqealarda ayol qizlarni ayblay olmaymiz. Ehtimol, hamma ayb zamondadir, yoki zamon zayliga ko'nib millat va hayot davomchisi bo'ladigan ayol-qizlarni o'qish va ta'lindan yiroqlashtirgan ota-onadadir.

Zamonaviy o'zbek hikoyachiliginin takomilda Cho'Ipouning munosib hissasi bor. Xususan, "Oydin kechalarda" novelistik hikoyaning adabiyotimizdag'i ilk va mumtoz namunasi sanalishi mumkin. O'zi tasvirlayotgan milliy turmush va milliy psixologiyani juda yaxshi bilgan adib hikoyani qurishda jahon adabiyotidagi eng ilg'or tajribaga tayanadi. Jumladan, adib "obyektiv" tasvir imkoniyatlaridan maksimal foydalanadi, badiiy voqelikka turli nuqtalardan qarash intrsospeksiya "kutilmaganalik effekti" kabi vositalardan samarali foydalanadi. Adabiyotimiz uchun yangi bo'lmish mazkur usul va vositalarning milliy ruhga yo'g'rilgan holda olib kirilgani o'quvchi ommani bu xildagi asarlarni qabul qilishga tayyorlashni osonlashtirishi jihatidan muhim edi. [5: D.Quronov:Cho'Ipou nasri poetikasi. Toshkent:"Sharq" nashriyoti-2004.282-b]

ADABIYOTSHUNOSLIK

Hikoya shunday tasvir bilan boshlanadi:

“Zaynab kampir bir narsadan cho’chib uyg’ondi. Oppoq oydin, oy kampir yotgan so’richaning qoq o’tasidan unda-munda bitta-yarimta uchragan oq bulutlarni yorib, shoshib o’tib borar edi.

Kampir u yog’-bu yog’iga yaxshilab qarab, oydinda hech bir qora-mora uchratmagandan keyin yana bolishga boshini qo’ydi...” [6:Cho’Ipon asarlari. 1-jild. “Akademnashr” Toshkent-2016. 315-318-b]

Bunday muqaddima so’zlardan keyin kitobxon Zaynab kampirni hikoyaning bosh qahramoni, deb o’ylashi va uning xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatishi tabiiy. Yozuvchi ham kitobxonda uyg’ongan ana shu taassurotni xuddi sezgandek, kampirning xayollarini tortgan «pulta savat, ko’rpa qavuq ipdan tortib, bu yil pilladan chiqadigan ipakkacha» – hammasini erinmay tasvirlaydi. So’ng kampirning arang uyquga ketgani va ko’p o’tmay, uyqu aralash yig’i tovushini eshitganini aytadi.

Uddi shu yerdan boshlab hikoyaning syujetlar tadriji o’sib boradi:

“Bu kim? Kechalari uxlamasdan yig’lab chiqquchi kim? Hamma tinch va rohat uyquga tolgan bir zamonda qalbini yaralab yig’laguchi qanday baxtsizdir?...”

Kunduzi bu kabi tovushlar eshitilmasligi, yoinki kishi bu kabi tovushlarga e’tibor qilmasligi tabiiy. Ammo tun sukunati tovushlar jarangini nafaqat qulorra balki yurakka ham yetkaza oladi.

Zaynab xola yig’layotgan ayolni Xadicha otining kelini desa, bugun uning dugonalari kelib, «ikki xuftongacha» o’yin-kulgu qilishdi. Balki qo’shnining kelinidir.

“Mana, kampirning o’z kelini, uy-joyi, kiyim-kechagi – hamma narsasi tayyor. Novdadek kuyov yonida.”

Kampir betoqat bo’ldi. Ko’nglida kechgan xayollar bilan yig’i kelgan tomonga asta borib, ne ko’zlar bilan ko’rsinki, yig’layotgan ayol o’zining kelini edi.

Cho’Ipon shu lahzaga qadar voqeani tabiat manzaralrini tasvirlash va kampirning xayollarini jonlantirish orqali ochayotgan edi. Endi qaynona bilan kelin yuzma-yuz kelganlarida, hikoyaga o’z-o’zidan savol-javob usuli kirib keladi: “... Aylanay, bolam, Qodirjon qani?

-Qodirjonni so’ramang, onajon. Mana, kelin bo’lib kelganimga bir yarim oydan oshgan bo’lsa, shu bir yarim oyning ichida ikki kechagina birga bo’ldik... Boshqa kunlarda har kecha kuta-kuta tong ottirib yuboraman. Shuncha kun chidab kelib-kelib, mana bu kun o’z qadrimga o’zim yig’lab yubordim. Qanday qilay? Men odam emasmi?”

Shu o’rinda bir savol tug’iladi. Nahotki ona o’z o’g’lining bir yarim oydan buyon uya tunamayotganini semagan bo’lsa? Axir o’zbek onalari farzandiga nisbatan befarq bo’lolmaydi. Bir joyga ketsa qaytgunicha yuragini hovuchlab turadi. Ammo hikoya Zaynab kahirning aynan shu beparvoligi sababidan yuzaga kelgan muammo ustiga quriladi. Yozuvchi aynan shu beparvolikni muammo uchun vosita qilib olgандir ehtimol.

Vaziyatni tushungan kampir nima deyishini ham bilmaydi.

“- Otasi ham shundoq edi, qizim”

Kampirning qarigan,qurigan ko’zlariga yiroq-yiroq yerdan ikki tomchi keladi. Butun tanini, butun a’zolarini bosib, ezib, sidirib kelgan shu ikki tomchi yoshini yengi bilan artgandan keyin shunday deydi kampir. Bu o’rinda “Qush uyasida ko’rganini qiladi” maqolini qo’llash o’rinli bo’lar. Sababi bola otasidan o’rgangani qiladi. Uning kech qaytishi yoki umuman uya qaytmasligi bu xonadonda yangilik emasdek go’yo.

Xo’sh, Qodirjonning otasi nega uya kech qaytgan? Qodirjonning o’zi-chi? Ular qanday tashvishlar bilan band? Turmushning qaysi yechilmas tugunlari tufayli ular oilalari bag’rida yashamaydilar?... Bunday savollarga shu payt mast-alast holda uya kirib kelib, obrezga yiqilgan Qodirjonning holati va “Gde, gde maya Anna, gde maya Annushka?” degan telba-teskari ashulasi javob beradi.

«Qizil shohi ko’ylak, qopqora sochlari yerda sudralgan» iffatning, nafosatning, mehriqiyoning qadrini oyoqosti qilib, otasining iflos odatini davom ettirgan Qodirjon hikoya xotimasida razil va pastkash bir inson sifatida gavdalansa, o’n gulidan bir guli ham ochilmagan kelin go’zallik va ezgulikning xorlangan ma’budasi o’laroq ko’rinadi. Yo’q, u razillik va pastkashlik oldida mag’rur qoya singari qad ko’tarmaydi. Balki razillikdan ozor chekayotgan, razillikka qarshi kurashga tayyor bo’Imagan, shuning uchun ham mehr va madadga, ko’makka muhtoj ayol sifatida e’tiborimizni tortadi.Cho’Iponning bu hikoyasida biz ikki holatni ko’ramiz. Cho’Ipon xotin- qizlarga munosabatning kirib kelishi yaxshi bo’Imani, ular haq-huquqining kmsitligani uchun jamiyat e’tiborini ayollar taqdiringa qaratmoqchi bo’lgan. Ikkinchidan mustamlakachilik davrining boshlanishi bilan bizga ichkilikbozlik, axloqsizlik singari illatlar natijasida xotin-qizlarni kmsitish yanada avjiga chiqqan.

Cho’Ipon «Oydin kechalarda» hikoyasida ana shu illatlarni bartaraf etish, o’zbek xotin-qizlariga xos vafo, iffat, go’zallik va ruhiy boylikning qadriga yetish hamda ularga bo’lgan munosabatni keskin

o'zgartirish g'oyasini ilgari suradi. Hikoya hajm nuqtayi nazaridan kichik bo'lishiga qaramay, yozuvchi unda Zaynab kampirning ham, kelinning ham ruhiy holatini katta mahorat bilan ochgan. Badiiy tafsillarning ko'pligi va aniqligi hikoyada hayot haqiqatining yorqin va haqqoniy tasvir etilishiga katta imkoniyat yaratgan. Umuman, muallif bu hikoyasi bilan kelajakda katta epik asar yozish darajasiga yaqinlashib borayotganini namoyish qilgan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЪТАТЫ/RESULTS)

Cho'lpox hikoyalari so'ngida o'quvchini so'roqlar qurshoviga otadi. Savollarga ko'madi. Har bir kitobxonning o'z fikri, o'z dunyoqarashi bor. Xulosalar ham shuga yarasha. Derazadan atrofga qaragan mingta odam ming xil narsani ko'radi. Ming xil narsaga e'tibor qaratadi. Adabiyot ham shunday. Har kimning o'z ko'zi, o'z so'zi bor. "Ozod Sharofiddinov asarning yaxlit butunligi, muallifning "kompozitsion tafakkuri" ni e'tiborga olgan holda xulosa chiqaradi: Darhaqiqat, Cho'lpox nigohi tushgan hayot parchasida "milliy turmush" ning botiniy poeziyasiga emas, ma'nан majruh etuvchi biqqlikka e'tibor beradi." [7:D.Quronov:Cho'lpox nasri poetikasi. Toshkent:"Sharq" nashriyoti-2004.282-b]

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, buyuk adib Abdulhamid Cho'lpox ham nazm-u nasrida ayollar ta'limi masalasini ilgari surish orqali ayollarining haq huquqini tanishga, o'zining nimalarga qodir ekanligni anglatishga undadi. Hikoyalarda uquvsiz, irodasiz, zamon zayli, taqdirga osongina ko'nib ketadigan, soddaligi tufayli balolar qozonida qaynagan, qiyinchiliklarni boshidan kechirgan ayol qizlarni ko'zlarini ochishga, dunyoga yanada teranroq nazar tashlashga chorlamoqchi bo'ldi. Shuni ham aytib o'tish joizki, Cho'lpox o'zining nasriy asarlarida ezilgan, turmush qiyinchiliklari qozonida qaynagan, nomusi, orzulari toptalgan, jamiyatda, oilada bir so'z aytishga-da haqqi bo'lmagan, o'z taqdiri o'zgalar qo'lida o'yinchoq bo'lgan xotin-qizlar haqida hikoya qiladi. Bu hikoyalarda voqelik bor. Hikoyani mutolaa qilgan har qanday kitobxonda o'tgan asr ayollarining kechmishi, turmush manzaralari nomoyon bo'ladi. Hayot oq va qora ranglardan iborat. Agar qora rang bo'lmasa biz oq rangni anglamaymiz, tanimaymiz. Buyuk adib o'z hikoyalarda ana shu qoraliklarni tasvirlaydi. O'zining ilgari surgan qarashlari, fikrlari orqali xotin qizlarni ilmli bo'lishga, o'z taqdirini o'zlari tanlashga, o'z orzu maqsadlari uchun kurashishga, o'zligini tanishga undaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Cho'lpox. Kecha va kunduz. – Toshkent: G'afur Gulom , 2020
2. D.Quronov. Cho'lpox nasri poetikasi. – T : Sharq. ,2004 (72-350-354-b)
3. Naim Karimov. Cho'lpox (ma'rifiy roman). – T: Sharq, 2003
4. Nasiba Norova. "Badiiy obrazlar paradigmatisasi
5. Cho'lpox asarlar. – T: Akademnashr.2-jild, 2016
6. X. Safarov . Hikoyada davr ruhi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 7-son

REFERENCES:

7. Cho'lpox. Kecha va kunduz. – Toshkent: G'afur Gulom , 2020
8. D.Quronov. Cho'lpox nasri poetikasi. – T : Sharq. ,2004 (72-350-354-b)
9. Naim Karimov. Cho'lpox (ma'rifiy roman). – T: Sharq, 2003
10. Nasiba Norova. "Badiiy obrazlar paradigmatisasi
11. Cho'lpox asarlar. – T: Akademnashr.2-jild, 2016
12. X. Safarov . Hikoyada davr ruhi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 7-son